



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 374 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyevena</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	196
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчеҳра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project)	368
Khurshida Kuchkarova	



JADIDLAR MEROSIGA E'TIBOR: TARIXIY XOTIRA VA MA'NAVIY TIKLANISH OMILI

Madaminova Shaxodat Shomurotovna

Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-6989-7231>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar merosiga bo'lgan e'tiborning tarixiy xotirani tiklash va ma'naviy yuksalishni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Jadid ma'rifatparvarlarining milliy uyg'onish, ta'lim va taraqqiyotga oid g'oyalari zamonaviy nuqtayi nazardan baholanadi. Tadqiqotning maqsadi jadidlar merosining bugungi jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini yoritishdan iborat.

Muallif ushbu merosning yoshlar tarbiyasi va milliy o'zlikni anglashdagi rolga alohida e'tibor qaratadi. Maqolada tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil olib borilgan. Tadqiqot natijasida jadidlar g'oyalarining bugungi ma'naviy tiklanish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Ishning ilmiy yangiligi jadidlar merosining tarixiy xotira va ma'naviy taraqqiyot omili sifatida kompleks yondashuv asosida o'rganilganidadir.

Kalit so'zlar: jadidchilik, jadid ma'rifatparvarlari, jadidlar merosi, tarixiy xotira, ma'naviy tiklanish, milliy uyg'onish, ma'rifat, ta'lim islohotlari, milliy o'zlik, madaniy meros, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, milliy tafakkur, zamonaviy jamiyat.

Abstract: This article examines the significance of attention to Jadid heritage in restoring historical memory and promoting spiritual renewal. The educational and national development ideas of Jadid intellectuals are analyzed from a contemporary perspective. The purpose of the study is to determine the role of Jadid heritage in modern social development.

Particular attention is paid to its contribution to youth education and the formation of national identity. The research is based on historical sources and scholarly literature. The findings demonstrate the close connection between Jadid ideas and current processes of spiritual revival. The scientific novelty of the study lies in its comprehensive approach to evaluating Jadid heritage as a factor of historical memory and spiritual development.

Key words: Jadidism, Jadid intellectuals, Jadid heritage, historical memory, spiritual renewal, national awakening, enlightenment, educational reforms, national identity, cultural heritage, social development, spiritual values, youth education, national consciousness, modern society.

Аннотация: В данной статье анализируется значение внимания к наследию джадидов в восстановлении исторической памяти и духовном возрождении общества. Идеи джадидских просветителей о национальном пробуждении, образовании и развитии рассматриваются с современных позиций.

Цель исследования заключается в определении роли наследия джадидов в развитии современного общества. Особое внимание уделяется его значению в воспитании молодежи и формировании национальной самосознания. Анализ проведен на основе исторических источников и научной литературы. В результате исследования обоснована взаимосвязь идей джадидов с современными процессами духовного обновления. Научная новизна работы заключается в комплексном изучении наследия джадидов как фактора исторической памяти и духовного развития.

Ключевые слова: джадидизм, джадидские просветители, наследие джадидов, историческая память, духовное возрождение, национальное пробуждение, просвещение, образовательные реформы, национальная идентичность, культурное наследие, общественное развитие, духовные ценности, воспитание молодежи, национальное мышление, современное общество.

KIRISH

Jahon taraqqiyotining zamonaviy bosqichida tarixiy xotirani asrash, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni tiklash masalalari har bir xalqning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlarining kuchayishi natijasida milliy madaniyat, tarix va ma'naviy merosga bo'lgan

e'tibor yanada ortib bormoqda. Shu jihatdan qaraganda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan jadidchilik harakati hamda uning namoyandalari qoldirgan ilmiy-ma'rifiy merosni o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Jadidlar millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, ta'lim, madaniyat va ma'rifatni ko'rgan hamda jamiyatni yangilash g'oyalarini ilgari surganlar [1, 15-b.].

Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining ijtimoiy ongini uyg'otish, milliy o'zlikni anglash, zamonaviy bilimlarni egallash va taraqqiy etgan davlatlar qatoridan munosib o'rin olishga qaratilgan ma'rifiy harakat sifatida tarixga kirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi jadid ma'rifatparvarlari o'z asarlari va amaliy faoliyati orqali xalqning dunyoqarashini o'zgartirishga, yosh avlodni ilm-ma'rifat ruhida tarbiyalashga hamda milliy taraqqiyot g'oyalarini shakllantirishga xizmat qildilar [2, 42-b.].

Ularning faoliyati natijasida yangi usul maktablari tashkil etildi, milliy matbuot rivojlandi, teatr san'ati va zamonaviy adabiyot taraqqiy etdi. Bu esa xalq ma'naviy hayotining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidlar merosini xolis va ilmiy asosda o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Sovet davrida "millatchi", "xalq dushmani" sifatida baholangan ko'plab jadidlarning hayoti va faoliyati qayta tiklandi, ularning asarlari nashr etildi va ilmiy muomalaga kiritildi. Natijada jadidlar merosining milliy davlatchilikni rivojlantirish, ma'naviy yuksalishni ta'minlash hamda tarixiy xotirani mustahkamlashdagi o'rni yanada chuqurroq anglana boshlandi [3, 78-b.].

Bugungi kunda jadidlarning ilm-ma'rifat, vatanparvarlik, milliy birlik va taraqqiyot haqidagi g'oyalari Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tarixiy xotira jamiyatning o'z o'tmishini anglash, tarixiy tajribalaridan to'g'ri xulosa chiqarish va kelajak taraqqiyot yo'lini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Shu ma'noda, jadidlar merosi xalqimizning tarixiy xotirasini boyituvchi, milliy o'zlikni mustahkamlovchi va ma'naviy taraqqiyotni rag'batlantiruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Jadidlarning milliy uyg'onish, ma'rifat va erkin fikr haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda [4, 94-b.].

Maqolaning maqsadi jadidlar merosining tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili sifatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun jadidchilik harakatining vujudga kelish omillarini tahlil qilish, jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-ma'rifiy faoliyatini baholash, ularning g'oyalarining bugungi kundagi ahamiyatini aniqlash hamda tarixiy xotira va ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liqligini ochib berish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, maqolada jadidlarning ma'rifiy qarashlari va milliy taraqqiyot haqidagi g'oyalarining zamonaviy O'zbekiston taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligi ilmiy dalillar asosida yoritiladi [5, 113-b.].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadidchilik harakati va uning ma'naviy merosi masalasi tarix, adabiyotshunoslik, pedagogika, siyosatshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlari doirasida keng tadqiq etilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jadidlar faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar asosan ularning ma'rifatparvarlik faoliyati, milliy uyg'onish g'oyalari, ta'lim tizimini isloh qilishdagi xizmatlari hamda Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini yoritishga qaratilgan.

Mustaqillik yillarida jadidchilik tarixini qayta baholash va xolis tadqiq etish imkoniyatlari kengaydi. Mazkur yo'nalishda akademik Naim Karimovning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Olim jadid adabiyoti va milliy uyg'onish harakati tarixini chuqur tahlil qilib, jadidlarning millat taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlarini ilmiy asosda yoritib bergan. Uning fikricha, jadidchilik harakati o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ma'rifiy, balki milliy o'zlikni anglash va milliy davlatchilik g'oyalarini shakllantirishga xizmat qilgan harakatdir [1, 42-b.].

Begali Qosimovning tadqiqotlarida jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy uyg'onish davri bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilgan. Olim jadidlarning asosiy maqsadi xalqni jaholatdan qutqarish, ilm-fan yutuqlarini ommalashtirish va zamonaviy taraqqiyot yo'lga olib chiqishdan iborat bo'lganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u jadidlarning tarixiy xizmatlarini baholashda ularning milliy ong va tafakkurni shakllantirishdagi roliga alohida e'tibor qaratadi [2, 58-b.].

Qahramon Rajabov va Sherzod Hayitovlarning ilmiy tadqiqotlarida jadidchilik harakatining shakllanish omillari, rivojlanish bosqichlari va Turkiston jamiyatiga ko'rsatgan ta'siri keng tahlil qilingan. Tadqiqotchilar jadidlarning faoliyatini Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati sharoitida yuzaga kelgan milliy ozodlik va ma'rifat harakati sifatida tavsiflaydilar [3, 91-b.].

Mahalliy olimlardan Dilmurod Alimova, Rustam Shamsutdinov, Hamid Ziyoyev va Alisher Ergashevlarining ilmiy izlanishlarida ham jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ma'rifatparvarlik faoliyati hamda milliy taraqqiyot



konsepsiyasi masalalari tadqiq etilgan. Ular jadidlarning Turkiston xalqlarini zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqishga qaratilgan g'oyalarini tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qiladilar [4, 112-b.].

Jadidchilik tarixini o'rganishda xorijiy olimlarning hissasi ham salmoqlikdir. Amerikalik tarixchi Adeeb Khalid jadidchilik harakatini Markaziy Osiyodagi musulmon jamiyatlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan madaniy-islohotchilik harakati sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, jadidlar an'anaviy ta'lim tizimini yangilash, dunyoviy bilimlarni ommalashtirish va milliy ongini shakllantirish orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashga harakat qilganlar [5, 124-b.].

Edward Allworth esa jadidlarning Turkiston xalqlari milliy o'zligini shakllantirishdagi rolini tahlil qilib, ularning faoliyati zamonaviy o'zbek millatining shakllanish jarayonida muhim o'rin tutganligini qayd etadi [6, 83-b.]. Olimning ta'kidlashicha, jadidlar milliy til, madaniyat va tarix masalalariga alohida e'tibor qaratgan holda milliy birdamlik g'oyalarini ilgari surganlar.

Fransuz olimlari Alexandre Bennigsen hamda Chantal Lemerrier-Quellejyarning tadqiqotlarida jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlar modernizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholangan [7, 96-b.]. Ular jadidchilikni nafaqat ma'rifiy harakat, balki musulmon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy yangilanishiga xizmat qilgan fenomen sifatida talqin qiladilar.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jadidchilik masalasi ko'proq tarixiy, siyosiy va pedagogik jihatlardan o'rganilgan. Biroq jadidlar merosining tarixiy xotirani tiklash va ma'naviy tiklanish jarayonlariga ta'siri alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy o'ziga xosligi ham shundan iboratki, unda jadidlar merosi tarixiy xotira va ma'naviy tiklanishning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidlarning ilm-ma'rifat, milliy uyg'onish va ma'naviy taraqqiyot haqidagi g'oyalari bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti nuqtayi nazaridan baholanadi. Shuningdek, jadidlar merosining yosh avlod ma'naviy tarbiyasi va milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda jadid ma'rifatparvarlari merosining tarixiy xotirani tiklash va ma'naviy tiklanish jarayonlaridagi o'rnini ilmiy jihatdan yoritish maqsadida tarixiylik, xolislik, tizimlilik, qiyosiy-tahliliy, kontent-tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarix fanida keng qo'llaniladigan tarixiy-tizimli yondashuv tashkil etdi. Ushbu yondashuv orqali jadidchilik harakatining vujudga kelish omillari, rivojlanish bosqichlari hamda uning Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'siri izchil ravishda tahlil qilindi.

Tarixiylik tamoyili asosida jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganildi. Bunda Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati, mahalliy aholi ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar va yangi usul maktablarining tashkil topish jarayonlari tahlil qilindi. Xolislik tamoyili esa jadidlar faoliyatiga biryozlama yondashuvlardan voz kechib, mavjud ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalar asosida obyektiv baho berish imkonini yaratdi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida jadid ma'rifatparvarlarining ilm-fan, ta'lim, milliy taraqqiyot va ma'naviyatga oid qarashlari bugungi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan taqqoslandi. Xususan, Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi qarashlari, Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limni modernizatsiya qilishga doir g'oyalari hamda Abdurauif Fitratning milliy taraqqiyot konsepsiyasi zamonaviy taraqqiyot strategiyalari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Kontent-tahlil metodi orqali jadidlarning ilmiy, badiiy va publitsistik asarlari o'rganildi. Jumladan, Behbudiyning "Padarkush", Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Fitratning "Munozara" va "Hind sayyohining qissasi" asarlarida ilgari surilgan ma'rifiy va milliy g'oyalar mazmun jihatidan tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanilib, jadidlar merosining tarixiy xotira va ma'naviy tiklanishdagi o'rnini yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadidlar merosi va tarixiy xotira masalasi

Tarixiy xotira har qanday xalqning milliy o'zligini saqlab qolish, o'z tarixidan saboq chiqarish va kelajak taraqqiyotini belgilashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uzoq yillar davomida soxtalashtirilgan yoki cheklangan tarixiy haqiqatlarni tiklash imkoniyati yuzaga keldi. Ana shunday masalalardan biri jadidlar faoliyatini xolis baholash va ularning milliy taraqqiyotdagi o'rnini qayta tiklash bo'ldi.

Sovet davrida jadidlarning aksariyati "xalq dushmani", "millatchi" yoki "aksilinqilobchi" sifatida talqin qilinib, ularning asarlari taqiqlangan edi. Mustaqillikdan so'ng esa ularning hayoti va faoliyatini ilmiy asosda o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada jadidlar merosi milliy tarixning ajralmas qismi sifatida qayta tiklandi.

1-jadval: Jadidlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Yo'nalish	Asosiy mazmuni	Jamiyat taraqqiyotiga ta'siri
Ta'lim	Yangi usul maktablari tashkil etish	Savodxonlik darajasining oshishi
Matbuot	Gazeta va jurnallar nashri	Ijtimoiy ongning rivojlanishi
Adabiyot	Ma'rifiy asarlar yaratish	Milliy tafakkurning shakllanishi
Teatr	Ma'rifiy spektakllar sahnalashtirish	Madaniy taraqqiyot
Siyosiy qarashlar	Milliy uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari	Milliy o'zlikni anglash

Jadval ma'lumotlari jadidlarning faoliyati faqat ta'lim sohasi bilan cheklanmaganligini, balki jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab olganligini ko'rsatadi.

Jadidlar merosining ma'naviy tiklanishdagi o'rni

Jadidlar o'z faoliyatida ma'naviy taraqqiyot masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, millat taraqqiyotining asosi ma'rifat va axloqiy barkamollik hisoblanadi. Ayniqsa, Abdulla Avloniy tarbiya masalasini millat hayoti uchun hal qiluvchi omil sifatida baholab, "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat masalasidir" degan mashhur fikrni ilgari surgan.

Bugungi kunda ham ushbu g'oya o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Yoshlarda vatanparvarlik, ma'naviy immunitet va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishda jadidlar merosi muhim tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

2-jadval: Jadidlar ilgari surgan asosiy ma'naviy qadriyatlar

Qadriyat	Mazmuni
Ma'rifat	Ilm-fan orqali taraqqiyotga erishish
Vatanparvarlik	Millat va Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish
Axloq	Shaxsning ma'naviy kamoloti
Taraqqiyot	Zamonaviy bilimlarni egallash
Milliy o'zlik	Til, madaniyat va tarixni asrash

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jadidlarning ma'naviy qadriyatlari bugungi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilayotgan ustuvor yo'nalishlar bilan hamohangdir.

Jadidlar qarashlarining zamonaviy ahamiyati

Bugungi globallashtirish sharoitida yoshlarning turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhini tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari mazkur vazifalarni amalga oshirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan:

- ta'lim sifatini oshirish;
- xorijiy tillarni o'rganish;
- ilm-fan yutuqlarini egallash;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

kabi masalalar jadidlar tomonidan bundan yuz yildan ortiq vaqt avval ilgari surilgan edi.



Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida quyidagi natijalarga erishildi:

3-jadval: Jadidlar merosining zamonaviy ahamiyati

Tadqiqot yo'nalishi	Aniqlangan natija
Tarixiy xotira	Jadidlar faoliyatini o'rganish milliy tarixni xolis baholash imkonini beradi
Ta'lim	Zamonaviy ta'lim islohotlari uchun muhim nazariy asos yaratadi
Ma'naviyat	Yoshlar ma'naviy tarbiyasida samarali vosita hisoblanadi
Milliy o'zlik	Milliy g'urur va o'zlikni anglashni kuchaytiradi
Taraqqiyot	Innovatsion rivojlanish g'oyalari qo'llab-quvvatlaydi

Tadqiqot natijalarining umumiy tahlili

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, jadidlar merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy boyluk, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy manba ham hisoblanadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma'rifat, milliy uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni mustahkamlash va ma'naviy tiklanishni ta'minlashda jadidlar merosidan samarali foydalanish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda ma'naviy hayotida yuz bergan eng muhim tarixiy hodisalardan biri hisoblanadi. Jadid ma'rifatparvarlari xalqni ilm-fan, ma'rifat va taraqqiyot sari yetaklash, milliy o'zlikni anglash hamda zamonaviy dunyo bilan hamnafas rivojlantirish g'oyalari ilgari surdilar. Ularning faoliyati nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jadidlar merosi tarixiy xotirani tiklashning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Chunki jadidlar faoliyatini o'rganish orqali xalqimizning milliy uyg'onish yo'lidagi kurashlari, ma'rifat va taraqqiyot sari intilishlari haqida haqqoniy tasavvur hosil qilish mumkin. Mustaqillik yillarida jadidlar merosining qayta tiklanishi tarixiy adolatning qaror topishiga, milliy o'zlik va tarixiy ongning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Tahlillar natijasida jadid ma'rifatparvarlarining ilm-ma'rifat, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik va milliy taraqqiyotga oid qarashlari bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan hamohang ekanligi aniqlandi. Xususan, ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish kabi masalalarda jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Tadqiqot davomida jadidlar merosining ma'naviy tiklanish jarayonlaridagi o'rni ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari yosh avlodda mustaqil fikrlash, milliy g'urur, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois jadidlar merosi nafaqat tarixiy qadriyat, balki zamonaviy jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim omili sifatida baholanishi lozim.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Jadid ma'rifatparvarlarining asarlarini zamonaviy ilmiy talqin asosida qayta nashr etish va keng jamoatchilikka yetkazish zarur.
2. Oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jadidlar merosini o'rganishga oid maxsus kurslar hamda o'quv modullarini joriy etish maqsadga muvofiq.
3. Jadidlar faoliyatiga oid arxiv hujjatlari va tarixiy manbalarni raqamlashtirish hamda ochiq ilmiy bazalarni yaratish lozim.

4. Yoshlar o'rtasida jadidlar merosini targ'ib qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, tanlovlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish tavsiya etiladi.
5. Jadidchilik harakatining tarixiy xotira va milliy taraqqiyotdagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan fundamental hamda amaliy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar merosi xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi bo'lib, tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ular Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida muhim ma'naviy va g'oyaviy manbalardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish. - Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
2. Karimov N. Jadidchilik va milliy tafakkur taraqqiyoti. - Toshkent: Sharq, 2001.
3. Rajabov Q., Hayitov Sh. Jadidchilik harakati tarixi. - Toshkent: Fan, 2018.
4. Alimova D. Turkistonda jadidchilik harakati. - Toshkent: Akademiya, 2020.
5. Ziyoyev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. - Toshkent: Sharq, 2001.
6. Shamsutdinov R. Jadidchilik: islohot, yangilanish va taraqqiyot. - Toshkent: Fan, 2019.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
9. Fitrat A. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
10. Cho'lpon. Asarlar. - Toshkent: Sharq, 2016.
11. Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. - Berkeley: University of California Press, 1998.
12. Edward Allworth. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. - Stanford University Press, 1990.
13. Alexandre Bennigsen, Chantal Lemerrier-Quelquejay. Islam in the Soviet Union. - New York, 1967.
14. Ergashev A. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. - Toshkent: Akademiya, 2018.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ma'naviy-ma'rifiy islohotlar masalalari. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.